



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Dekabr 2021
Ma'qullandi: 20-Dekabr 2021
Chop etildi: 25-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Milliy o'yinlar, bola shaxsini rivojlantirish, aqliy rivojlantirish, jismoniy rivojlantirish, axloqiy tarbiya, nutq o'stirish, "Oq terakmi, ko'k terak?" o'yini, "Besh tosh" o'yini.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqini o'stirish, shaxsini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlarini o'rni beqiyosdir.

O'zbek xalq o'yinlarining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'yinlar xalqning o'zi singari qadimiy va boy tarixga ega. O'zbek xalqi milliy o'yinlarining yaratilishi xalqning yashashi, mehnati, urf-odatlarini ehtiyojidan kelib chiqqan.

Milliy xalq o'yinlarini o'rganish jarayonida ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. Xalq o'yinlarini bajarish chog'ida bolalar harakatida ijobiy – hamjihatlik, intizomlik, kamtarinlik,

NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Arifxodjeyev G'ulom Sayyorovich¹, Muzaffarova Xayitgul Nesibovna², Xosiljonova Shaxnoza Muhammadibrohim qizi³

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI,

¹ Maxsus pedagogika Defektologiya (Logopediya) t.f.n,

² Katta o'qituvchi, ³ II bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813021>

ANNOTATSIYA

Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, milliy o'yinlardan foydalanish orqali so'z boyligini oshirish va nutq nuqsonlarini bartaraf etish keltirilgan. Shuningdek muallif milliy o'yinlardan misol keltirib bergan.

mehribonlik va ma'naviy fazilatlar – halollik, odillik, do'stlik tuyg'usi, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarishni tarbiyalash, shuningdek irodaviy xususiyatlarni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

To'g'ri tashkil qilingan milliy xalq o'yinlari bola shaxsini rivojlantirish, nutqini o'stirish, aqlini oshishiga qulay imkoniyatlar yaratadi, zero bunday vaziyatda asab tizimining ham, boshqa barcha a'zolar tizimining ham faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar paydo bo'lishi shubxasiz.



Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev bir necha bor ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlarimizni, sharqona pedagogikani tiklash hozirgi kunning o'ta dolzarb vazifasidir.

Milliy o'yinlarni o'rgatish jarayonida o'quvchilar xalqona an'analarga sodiq holda yaxshi tarbiya ko'radi, o'rgangan narsalarini puxta eslab qoladi. Bolalarda ruhiy jarayonlar – tarbiya, tafakkur, xotira, tasavvur va boshqalarning, shuningdek fikrlash faoliyatlari – kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirishning barchasi rivojlana boshlaydi.

Bolalarning ochiq havoda o'tkazadigan o'yinlari shaxsning o'zini anglashi va o'zini namoyon qilishiga yordam beradi. Ushbu turdagi folklor bolalarni axloqiy bilish va nutqni rivojlantirish uchun eng yaxshi manbalardan biridir. Unga xalq pedagogikasi tomonidan yillar davomida ishlab chiqilgan ta'lim asoslari kiradi. Bolalarning xalq ma'daniyati kattalar bilan birgalikda rivojlanadi. Aynan bolalar o'zlarining o'yinlarida qadimiy an'analarni saqlab qolishadi.

Milliy o'yinlardan foydalanish bolalarni bag'rikenglikka o'rgatishga yordam beradi. Ular ta'limning o'ziga xos manbaidir. Milliy o'yinlar ajdodlarimizning turmush tarzi va urf-odatlarini o'z ichiga oladi. Ko'ngilochar o'yin vaziyatlari bolalarni tarbiyalaydi. Ular qahramon va uning harakatlarini tavsiflovchi dialoglar va qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

Milliy o'yinlar quyidagi vazifalarni hal qilishga imkon beradi:

- ritm tuyg'usini shakllantirish;
- raqsga tushish mahoratini oshirish;

-o'yin tasviriga ko'nikish qobiliyatini rivojlantirish;

-shaxsni shakllantirish;

- nutqini o'stirish;

-didni rivojlantirish;

-barcha aqliy jarayonlarni takomillashtirish;

-adabiy nutqni go'zalligini tushunish;

-Vatanga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish;

-hissiy sohani rivojlantirish;

-jismoniy sifatlarni va sog'ligini mustahkamlash;

-xalq qadriyatlari va urf-odatlarini bilan tanishtirish.

“OQ TERAKMI, KO'K TERAK?,,

Oq terakmi, ko'k terak? – bolalar milliy o'yinida ishtrokchilar teng ikki jamoaga bo'linib 15-20 metr oraliqdagi masofada qo'l ushlab saflanib turishadi. Birinchi jamoa sardori 2-jamoadan birining otini aytib chaqiradi:

-Oq terakmi, ko'k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Shunda ikkinchi jamoadan javob keladi:

-Ariq bo'yida andiz

Daryo tubida qunduz.

Bizga kerak alpinist

Bo'laman, degan Yulduz!

Shundan so'ng chaqirilgan bola yugurib kelib, raqib jamoa a'zolarining qo'l ushlab turgan yerini ko'kragi bilan



uzishga urinadi. Agar qo'llar ushlangan joyidan uzilib ketsa, raqib tomondagi bolalardan xohlaganini o'z jamoasiga olib ketadi, uzolmasa, o'zi o'sha jamoada qoladi. O'yin shu tariqa navbat bilan davom etadi. Qaysi jamoada o'yinchilar soni ko'p bo'lsa, o'sha jamoa g'olib bo'lgan hisoblanadi.

O'yindan maqsad: xalq milliy o'yinlari orqali bola shaxsini tarbiyalash, nutqini o'stirish, "r," tovushi talaffuzini to'g'ri yo'lga qo'yish, aqlini rivojlantirish, harakat malakalarini mustahkamlashdan iborat.

"BESH TOSH,"

Besh tosh - xalq milliy o'yini beshta toshda o'ynaladi. Bunda bitta toshni bir qo'lda otib, qolgan to'rtta toshni yig'ib olish kerak

bo'ladi. Hamma toshlarni bir qo'lda yig'ib olgan bola o'yin g'olibi sanaladi.

O'yindan maqsad: mayda qo'l motorikasini rivojlantirish orqali, nutqimizdagi tovushlar talaffuzini to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Barcha milliy xalq o'yinlari nihoyatda qimmatlidir. Ushbu o'yinlar ajdodlarimizning urf-odatlarini, folklorini aks ettiradi. Ular shaxsiyatni shakllantiradi va bolaning ijobiy fazilatlarini rivojlantiradi. Bunday o'yinlar tufayli nutq tili ham yaxshilanadi, mantiq shakllanadi va bolalarning jismoniy tayyorgarligi darajasi yaxshilanadi. Ularni nafaqat ta'limda qo'llab qolmay, balki uyda ota-onalar ham qo'llashi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayrapyans L. P. "Milliy sport turlari va o'yinlarining rivojlantirishning muammolari," Toshkent (1998)
2. Babayeva „ Nutq o'stirish metodikasi" Toshkent (2009)
3. F. Qodirova, M. Fayzullayeva, Z. Raximova, M. Rustamova, Z. Fayziyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" Toshkent (2015)
4. E. Ermatov „Harakatli o'yinlarni o'rgatish uslubiyati" Samarqand (2010)
5. Muzaffarova X. N. " Maktabgacha logopediya,, Jizzax (2021)
6. Usmonxo'jayev T. "1001 o'yin,, Toshkent (1995)
7. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674
8. Akramova, X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682
9. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897
10. Akramova, X. (2020). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994